ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 1,3

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.03.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.03.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.03.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

MAMMADOVA SHAKAR,
XAMIDOV MANSUR
Ozarbayjon va o‘zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarning qiyosiy-tipologik tahlili 7

YAKUBOVA NILUFAR EGAMBERGANOVNA
O‘zak va qolip (vazn) nazariyasi arabiy o‘zlashmalarni
tahlil qilishning asosiy mezoni sifatida 12

SAMANDAROV RUSTAM DO‘SYOROVICH
Tilshunoslik fani taraqqiyotida applikativ modelning murakkab
sintaktik qurilmalar shakllanishidagi o‘rni 17

ИШАНХАНОВА МУХЛИСАБОНУ ТУРГУНОВНА
Арабская лингвистическая традиция VII–XVII вв.: формирование
интеллектуального стиля и инструментов сохранения языковой нормы 21

ALIMOVA ZARIFAXON VAXOBOVNA
MAMAROZIQOVA SUG‘DIYONA SHUXRATJON QIZI
Jomiyning «Yusuf va Zulayho» dostonida forsiy o‘rin-joy yasovchi affikslarining qo‘llanilishi 25

TO‘YCHIYEVA ZULAYXO HAMROQO‘LOVNA,
YERJANOVA SAULE BAYMURZAYEVNA
Mahmud Koshg‘ariyning «Devony lug‘oti-t-turk» asarida keltirilgan
maqollardagi so‘zlarning semantik-stilistik xususiyatlari 29

SADULLAYEVA MATLYUBA AXROROVNA
Ahmad Yassaviy ijodining ramziy tili va undagi raqamli tasavvuf 33

SOTVOLDIYEV SIROJIDDIN MAXAMMADDIN O‘G‘LI
Arab tilida enantiosemiya hodisasi: semantik tabiati va ilmiy talqinlar tahlili 36

PANJIEVA NASIBA NARMAXMATOVNA
SAIBNAZAROVA NAZOKAT
English proverbs with number components 39

ЛАТИПОВ АЗИЗ АКБАРАЛИЕВИЧ
Сопоставительная характеристика категории
фазовости в английском и узбекском языкознании 42

AMONOV MUXTORJON UMAROVICH
«Boburnoma» asaridagi arabcha o‘zlashmalarda antonimlik 45

ОРИФЗОДА МАДИНА КАМИЛОВНА,
ОРИФЗОДА БОНУ КАМИЛОВНА
Системное изучение словообразовательной омонимии
в ретроспективном и перспективном аспектах 48

SABIROV ASROR ABDULLAYEVICH
Nemis–o‘zbek siyosiy terminlarining semantik va stilistik xususiyatlari 52

IBRAXIMOVA IRODA BOBIR QIZI
O‘zbekistonda til siyosati va ingliz tilining rivoji 56

TURSUNOVA MARXABO RAXMONOVNA
Jojo Moyesning «To seni topgunimcha» romanida kognitiv dissonans fenomenining
psixologik va lingvistik talqini hamda uning tarjimashunoslikdagi ifodasi 60

ARZIMURODOVA E’ZOZA BERDIMUROD QIZI
Zamonaviy mobil aloqa terminlarida transliteratsiya strategiyalari: ingliz va o‘zbek tillari qiyosida 64

BOZOROVA SEVARA KAMOL QIZI
Savdo konsepti doirasida sinonimiya (o‘zbek va ingliz tillari misolida) 68

КАРИМОВА ГУЗАЛ ИХТИЯРОВНА
Лингвокультурологический аспект концепта и его изучение в разных языках 71

MAXAMMATOVA FERUZA OLIMOVNA
O‘tkir Rahmat she’riyatida sinonim so‘zlarning qo‘llanishi haqida ayrim mulohazalar 76

МУНДАРИЖА

MUSTAFOEVA MAKSAD ASKAROVNA
The structural and linguistic analysis of anthroponyms in «Beowuf» and «Alpomish» folk epics 79

NOSIROVA DILNOZA RIZOKULOVNA
Semantic and pragmatic features of john green's novels in contemporary young adult literature 82

RAXIMOVA ZARINA UKTAMOVNA
O'smirlar psixologiyasining lingvopoetik ifodasi va tarjimada ichki monolog hamda emotsional tasvir 87

RAXMATOVA GULNOZA ISOXONOVNA
O'zbek tilidagi so'roq olmoshlari va so'roq yuklamalarining ingliz tilidagisi bilan qiyosi 90

BERDIYEVA SITORA UTKEROVNA
G'afur G'ulomning «Shum bola» asarida yumorning badiiy funksiyalarining lingvistik jihatlari 93

SHAMSITDINOVA MOXINABONU AKBAR QIZI
Yapon tilida omonimlardan foydalanishda nutqiy strategiyalar 98

ADABIYOTSHUNOSLIK

ШОФИЕВ ОБИДЖОН БАХТИЁРОВИЧ
Телба образининг бадиий талқини
(Эркин Аъзамнинг «Сув ёқалаб» ва «Танҳо қайиқ» киноқиссалари мисолида) 100

ASQAROVA ZULAYXO YANGIBOYEVNA
Muhammad Rizo Ogahiyning «Riyozu-d-davla» asaridagi ta'rixlarning badiiy-estetik qimmati 104

MAMADJONOVA SEVARA MAXAMADJON QIZI
Adabiyotshunoslikda dualizm tushunchasining nazariy va
metodologik asoslari (Agata Kristi poetikasi misolida) 109

RAHIMOVA SARVINOZ TOLIBOVNA
Usmon Azimning «Devorlari yiqilgan bog'» hamda «Yana sevgi haqida she'rlar»
asarlaridagi simulyakra va boshqa postmodern xususiyatlar ifodasi 112

СААКЯН РОЗА ЮРЬЕВНА
Поэтика полемического жанра в памфлетной публицистике
Даниэля Дефо и Жжонатана Свифта 115

SHAMSIYEVA SHOXISTAXON QUDRATULLAYEVNA
Gender rollarni aks ettiruvchi stereotiplar 119

НАСРИДИНОВА СИТОРА УТКИРОВНА
Мотив отсутствия и присутствия как средство создания
напряжения в рассказе Джека Ритчи «Отсутствие эмили» 125

BAFOYEVA ROXILA VALIJON QIZI
Amerika hamda o'zbek postmodern adabiyoti xususiyatlari 128

KHAKIMOVA NARGIZA KHAYRILLOYEVNA
Mythological origins of the epics "Arthuriana" and "Alpamysh" 131

TA'LIM

TILOVOVA GO'ZAL RUSTAMOVNA
Ta'lim jarayonida o'quv izohli lug'atlardan foydalanishning nazariy va amaliy ahamiyati 135

YULDASHEVA DILAFRUZ
The role of teacher instruction in efl classrooms: a discourse-oriented analysis
of their importance in teaching young learners 138

Резюме. В статье анализируются семантические и стилистические особенности некоторых политических терминов, вошедших в узбекский язык из немецкого. В качестве материала исследования были выбраны термины *Bürger, Bürgerschaft, Gastarbeiter, Mentalität* и *Neutralität*, которые были изучены с сопоставительно-лингвистической точки зрения на основе толковых и этимологических словарей немецкого, русского и узбекского языков. В результате анализа установлено, что в процессе заимствования в узбекский язык данные термины претерпели определённые семантические изменения и стилистическую адаптацию.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 3
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O‘ZBEKISTONDA TIL SIYOSATI VA INGLIZ TILINING RIVOJI

Ibraximova Iroda Bobir qizi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi,
filolgiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Til siyosati har qanday xalq taraqqiyotining muhim asoslaridan biri bo‘lib, u ta‘lim, madaniyat va ijtimoiy hamjihatlikka ta‘sir etuvchi kuchga ega. Ko‘p millatli, boy lisoniy merosga ega O‘zbekiston 1991-yilda mustaqillikka erishgandan buyon til siyosatida qator muhim islohotlarni amalga oshirdi. Ushbu maqolada O‘zbekistonda ingliz tili qo‘llovi holati tahlil qilinadi, uning tarixiy ko‘rinishi, taraqqiyoti, ta‘limga tadbiq etilishi, identiklikka va davlat qurilishiga ta‘siri ko‘rib chiqiladi.

Til nafaqat muloqot vositasi, balki madaniy o‘ziga xoslikni, ijtimoiy hamjihatlikni va milliy taraqqiyotni shakllantiradigan kuchli quroldir. O‘zining til xilma-xilligi bilan tanilgan O‘zbekistonda til siyosati kuchli davlatchilikni shakllantirish va madaniyatni asrab-avaylashda muhim rol o‘ynadi. Til siyosatini izchil yo‘lga qo‘yishning naqadar ahamiyatli ekanligi mustaqillikka erishgunga qadar ham anglab yetilgan edi. 1989-yil 21-oktabrdan boshlab o‘zbek tili O‘zbekistonda davlat tili deb e’tirof etila boshlandi. Biroq «Davlat tili to‘g‘risida»gi qonunning o‘zida ta’kidlanganidek, «O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o‘z ona tilini qo‘llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi».[1] O‘shandan beri O‘zbekistonda til siyosati bir necha bosqichlarda tarixan rivojlandi.

Til siyosati shaxsiy va jamoaviy identiklikni shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Sotsiolingvistlar ta’kidlaganidek, til shunchaki muloqot vositasi emas, balki insonning madaniy kelib chiqishi, merosi va ijtimoiy identikligini yaqqol ko‘rsatadigan kuchli belgidir. Til va identiklik o‘rtasidagi munosabat ikki taraflama ta’sirga ega. Chunki til insonning identikligini aks ettiradi va identiklik ham o‘z navbatida til tanlash va undan qay tariqa foydalanishga ta’sir qiladi. Shu sababli, til siyosatini o‘rganish muayyan lingvistik tanlovlar va qonunlarning shaxslar va jamoalarning identikligiga qanday ta’sir qilishini tushunish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Til siyosati, ko‘plab tadqiqotlarda isbotlanganidek, odamlarning til tanlash va bir tilni boshqalaridan afzal ko‘rishlariga, ayniqsa ta’lim kontekstida sezilarli darajada ta’sir qiladi. O‘zbekistondagi til siyosatini o‘rganish davlat o‘zbek tilini asosiy ta’lim tili sifatida faol targ‘ib qilayotgan ko‘p tilli muhitda odamlar o‘zlarining lisoniy identikliklarini qanday namoyon qilishlari haqida ma’lumot beradi. Bunday tadqiqotlar nafaqat til va identiklik o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni tushunishga zamin yaratadi, balki til siyosatining ko‘p tilli shaxslarning kundalik hayotiga real ta’sirini ko‘rsatadi.

[1] O‘zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrdagi 167-I-son “O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili haqida”gi Qonunga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonuni. 2-modda.

O‘zbekistonda til siyosati sohasidagi tadqiqotlarda sezilarli bo‘shliq mamlakatda rivojlanayotgan til siyosatini amalga oshirishning amaliy oqibatlari va muammolarini o‘rganishning cheklanganligidadir. Mavjud tadqiqotlar O‘zbekistondagi til siyosatining tarixiy konteksti, qonunchilik asoslari va umumiy maqsadlari haqida qimmatli tushunchalar bersa-da, ularning amaliyotga joriy etilishi, jamiyatning u qonunlar va islohotlarga reaksiyasi, hamda ularning samaradorligini o‘rganuvchi keng qamrovli tadqiqotlarga ehtiyoj bor.

Bundan tashqari, ingliz tilini bilishga e’tibor kuchayib borayotganligi sababli, ingliz tili ta’limini milliy o‘quv dasturiga integratsiyalashning muammolari va muvaffaqiyatlarini va uning xalqarolashuv va global raqobatbardoshlikka ta’sirini o‘rganish uchun tadqiqotlar olib borishga imkoniyatlar mavjud. Shu va shu turdagi tadqiqotlarni olib borish, aniq xulosa va yechimlarni ishlab chiqish O‘zbekistonda til siyosatining mohiyatini va uning ta’lim, madaniyat va jamiyatga ta’sirini yanada to‘liqroq tushunishga katta hissa qo‘shadi.

Tadqiqotni o‘tkazish uchun bir nechta lingvistik metodlardan foydalanildi. Biz til siyosatini ishlab chiqish bilan bog‘liq qonunlarni o‘rganish uchun hujjatlarni tahlil qilish metodidan foydalandik. O‘zbekiston mustaqillikka erishgunga qadar va undan keyingi til siyosatini solishtirishda tarixiy tahlildan foydalanildi. Vaqt o‘tishi bilan til siyosatining evolyutsiyasini kuzatish uchun tarixiy hujjatlar, arxivlar va akademik adabiyotlar o‘rganildi. Tadqiqot natijalarini qo‘llab-quvvatlovchi empirik dalillarni taqdim etishda tildan foydalanish, malaka va til ta’limi bilan bog‘liq statistik tahlil amalga oshirilgan.

O‘zbekiston rivojlanayotgan davlat. Unda rivojlanish uchun ko‘plab sohalarda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Til siyosatiga qaratilayotgan e’tibor ham ana shu maqsadga qaratilgan chora-tadbirlardan biridir. Bir tomondan, davlat tilining nufuzini va undagi savodxonlik darajasini oshirish, uni milliy meros sifatida asrab-avaylash zarur. Boshqa tomondan esa, xalqaro maydonga chiqish, jahon ilm-fani yutuqlaridan yuqori saviyada foydalana olish uchun xorijiy tillarni faol o‘rganish, ularda muloqotni rivojlantirish, samarali natijalarga erishish ham muhim zaruratdir.

Indiana universiteti professori Bloomington William Fierman O‘zbekistonda til rivojlanishi haqida bir qancha maqolalar yozgan. «Mustaqil O‘zbekistonning o‘tmishi bilan tanishish bugungi kundagi siyosatni tushunishda muhim ahamiyatga ega, chunki bu siyosatlar asosan davlatning mustamlakachilik o‘tmishiga asoslangan»[1], – deb ta’kidlagan u o‘zining O‘zbekiston mustaqilligi qo‘lga kiritilgan yilda yozilgan tahlillaridan birida. Olim tomonidan ilgari surilgan g‘oya – bugungi jarayonlarni tushunishda o‘tmishning ahamiyatini inobatga olish masalasi bugungi kunda ham dolzarbdir.

Rossiya Imperiyasi hukrmorligi davri «1930-yillarning o‘rtalarida madaniyat va til siyosatida ruslashtirish avj oldi. An’anaviy urf-odatlarning chetga surilishi bilan birga o‘zbek tilidagi arab, fors, turkiy so‘zlar ruscha so‘zlar bilan almashtirildi. 1938-1940 yillarda butun O‘rta Osiyoda lotin alifbosidan voz kechib, kirill yozuviga o‘tildi, 1938-yilda esa Sovet Ittifoqidagi rus bo‘lmagan barcha maktablarda rus tilini o‘qitish majburiy holga keltirildi».[2] Natijada sho‘rolar davrida boshqaruv va ta’lim sohasida rus tili hukmronlik qilishni boshlab, ona tili bo‘lmish o‘zbek tili marginallikka yuz tutdi.

Biroq 1991-yilda Sovet Ittifoqining parchalanishi O‘zbekistonda til siyosati islohotlarining yangi davri boshlanganidan darak edi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng o‘zbek tilini davlat tili sifatida targ‘ib qilish maqsadida til siyosatida jiddiy o‘zgarishlarni amalga oshirdi. O‘zbekistonda til siyosati ta’lim tizimiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Ta’limning asosiy tili sifatida rus tilidan o‘zbek tiliga o‘tish bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

O‘zbekistonda rus tilining rolini tahlil qilar ekan, Stockholm universitetining Markaziy Osiyo bo‘yicha professori Birgit Schlyter shunday yozadi: «Endi rus tili garchi na davlat tili, na rasmiy til bo‘lmasligiga qaramasdan u ko‘plab insonlar har kuni duch kelishga odatlangan, hattoki o‘z lingvistik jamiyatida uni qo‘llashdan qulaylik his qiladigan tilligicha qolgan. Shu sababli, rus tilining bu davlatda lingua franka maqomini yo‘qotishi ehtimoldan ancha yiroq holatdir».[3] Fikrini dalillar ekan, olim O‘zbekistonda Xalq so‘zi/Народное слово va Toshkent oqshomi/Вечерний Ташкент singari gazetalarnining uzoq yillardan buyon ham o‘zbek, ham rus tillarida birdek nashr qilinib kelinayotganini misol qilib keltirgan.

Til siyosati madaniy merosni asrab-avaylash va milliy o‘zlikni anglashda ham muhim o‘rin tutadi. O‘zbek tilini davlat tili sifatida targ‘ib qilish O‘zbekiston ko‘p millatli aholisining madaniy ildizlarini mustahkamlashda ham muhim o‘rin tutadi. Biroq, til

[1] Fierman W. Language planning and national development: The Uzbek experience. – Berlin, Germany/New York: De Gruyter Mouton, 1991. – P. 37.

[2] Djurayeva M. Language in Education Policy in Uzbekistan: Formation of Uzbek National Identity. In book: Language Education Policy Unlimited: Global Perspectives And Local Practices, 2015. – P. 4.

[3] Schlyter B.N. Language policy and language development in multilingual Uzbekistan. In Language Policy and Language Conflict in Afghanistan and Its Neighbors: The Changing Politics of Language Choice. – Leiden, Boston: Brill, 2012. – P. 196.

xilma-xilligini saqlash va umumiy milliy identiklikni targ‘ib qilish o‘rtasida muvozanatni saqlash juda muhimdir. «Garchi til islohotini amalga oshirishda jiddiy to‘siqlarga duch kelingan bo‘lsada, o‘zbek tili mustaqillikdan keyingi davrda ham o‘z mavqeini umumdavlat tili sifatida saqlab qola oldi».[1]

Ingliz tili global lingua franka sifatida xalqaro aloqalar, savdo munosabatlari va ta’limda muhim rol o‘ynaydi. Ko‘pgina davlatlar o‘z fuqarolari o‘rtasida ingliz tilini bilish darajasini oshirish muhimligini e’tirof etishadi. O‘zbekiston ham ingliz tilini o‘rganishni rivojlantirish orqali o‘zini zamonaviy ko‘p tilli davlatga aylantirmoqda.

Ingliz tilini o‘rganishni rag‘batlantirishning asosiy maqsadlari bandlikni yaxshilash, xalqaro muloqotni osonlashtirish va xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshlikni oshirishdan iborat. Ijobiy natijalar ko‘pincha malakali ishchi kuchini ta’minlab, global ma’lumotlar bazalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga va xalqaro aloqalarni yaxshilashga turtki bo‘ladi.

Shu singari natijalar hozirgacha ingliz tilini o‘rganishni rag‘batlantirish uchun turli yondashuvlarni qo‘llagan bir qancha mamlakatlar tajribasida ham kuzatilmoqda. Ushbu tizimlar ingliz tilini milliy o‘quv dasturiga kiritish, til o‘rgatish va chet elda ingliz tilini o‘qitish uchun stipendiyalarni taklif qilishni o‘z ichiga oladi. Misol uchun, Singapur, Shvetsiya, Janubiy Koreya, Niderlandiya va Xitoy kabi davlatlar xalqaro, iqtisodiy raqobatbardoshlik va muloqotni yaxshilash maqsadida o‘z xalqining ingliz tilini bilishiga e’tibor beradi. Ingliz tili yoshlikdan ingliz tilidagi ta’limni o‘z ichiga olgan ta’lim tizimining bir qismi sifatida dunyoning ko‘plab maktablarida majburiy fan sifatida o‘qitiladi.

O‘zbekiston ham ta’limni baynalmilallashtirmoqda. Bu yo‘lda ingliz tili ta’limiga katta sarmoya kiritilib, ingliz tilini o‘qitishni milliy o‘quv dasturiga eng erta bosqichlardan boshlab kiritish, chet tilini o‘qitishga qaratilgan dasturlarga katta e’tibor qaratish singari ishlar izchil tarzda amalga oshirib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-1875-sonli qaroriga asosan 2013/2014-o‘quv yilidan boshlab respublikamizning barcha hududlarida ingliz tili darslari 1-sinfdan boshlab o‘qitila boshlandi.

Ingliz tili bilan bog‘liq tashkilotlar bilan hamkorlik ingliz tilini samarali o‘rganishni rivojlantirishda ta’sirga ega omillardandir. «Britaniya Kengashining O‘zbekistondagi faoliyati 1996-yil oktabr oyida O‘zbekiston hukumati bilan ikki tomonlama rasmiy shartnoma imzolanishi bilan boshlandi. O‘tgan chorak asr davomida tashkilot O‘zbekiston va Buyuk Britaniya o‘rtasidagi ta’lim va madaniy aloqalarni institutsional darajada mustahkamlashda sezilarli yutuqlarni qayd etdi».[2] Britaniya Kengashi turli tadbirlarni, shuningdek, o‘zbekistonliklar uchun IELTS testlarini tashkil qiladi. 2018-yilda O‘zbekistonda yana bir rasmiy IELTS test markazi ham IELTS imtihonlarini tashkil qila boshladi. IDP Australia va Edu-Action hamkorligi endi O‘zbekistonda yanada ko‘proq odamlarga xalqaro imtihondan o‘tish va til darajasi bo‘yicha sertifikat olish imkonini bera boshladi.

Xorijiy tillarni o‘qitish uchun chet el fuqarolarini jalb etish loyihasi doirasida tashkil etilgan o‘quv-seminarda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi 2024-yilda 500 nafar ingliz tilida ona tili sifatida so‘zlashuvchi mutaxassis, 2025-yilda esa yana 1500 nafar mutaxassis olib kelishini ma’lum qilgan edi.[3]

O‘zbekistonda so‘nggi yillar ichida til siyosati, chet tili ta’limini tashkil etish va ingliz tilini bilish darajasini baholash imtihonlari uchun standartlarga oid bir nechta qonunlar qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasining 1-Prezidenti Islom Karimov 2012-yil 10-dekabrda «Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-1875-sonli qarorini imzoladi. Unga ko‘ra, chekka hududlardagi chet tili o‘qituvchilari ish haqini 30 foizga, boshqa hududlardagilar uchun esa 15 foizga oshirish amaliyoti yo‘lga qo‘yilib, bu ingliz tilini sifatli o‘qitishni rag‘batlantirish borasidagi ta’sirli choralardan biriga aylandi. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 19-may sanasida «O‘zbekiston respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-5117-sonli qarorni imzoladi. Ushbu qaror O‘zbekistonda til siyosati yangi bosqichga olib chiqishda muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Mazkur qarorga muvofiq, C1 sertifikatiga ega bo‘lgan chet tili o‘qituvchilariga bazaviy stavkaga nisbatan oylik 50 foiz qo‘shimcha haq to‘lash boshlandi. Imtihon xarajatlari davlat va ta’lim muassasalari tomonidan qoplanishi belgilandi.

Endilikda bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga hujjat topshirishda chet tili bo‘yicha B2 sertifikatiga ega bo‘lgan abituriyentlar chet tili imtihonidan ozod qilinadi va ularga chet tili bo‘yicha test sinovlarida maksimal ball qo‘yiladi. Shuningdek, 5117-sonli qaror bilan 2022-2023 o‘quv yilidan boshlab magistratura va doktoranturaga hujjat topshirishda tilshunoslar uchun C1, boshqa mutaxassislar uchun esa B2 darajasidagi til bilish sertifikatiga ega bo‘lish talabi qo‘yilgan edi. Bi-

[1] Schlyter B.N. (2014) The Status of Uzbek as “National Language”. In Schlyter B. (ed.), Historiography and Nation-Building among Turkic Populations. – Stockholm/Istanbul: 2014. – P. 132.

[2] https://www.britishcouncil.uz/en/programmes/25-years

[3] https://kun.uz/uz/news/2023/08/30/maktablarda-dars-berish-uchun-xorijdan-500-nafar-til-egalari-olib-kelinadi

roq 2024-yilda ayrim yo‘nalishlar (xususan, madaniyat, san’at, sport, ta’lim, sog‘liqni saqlash, ishlab chiqarish, muhandislik, qishloq xo‘jaligi, veterinariya, arxitektura va qurilish, fizika va tabiiy fanlar, transport xizmatlari) bo‘yicha magistratura va doktoranturada o‘qish uchun chet tili sertifikati talabi B1 darajasiga tushirildi. Aniq fanlar, biologiya, matematika, huquq, jurnalistika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va iqtisodiyot fanlarida B2 daraja talabi saqlanib qolgan. Bundan tashqari ta’lim dasturini chet tilida tamomlagan talabalar uchun sertifikat talabi bekor qilinadi. Chet tillari bo‘yicha ta’limni davom ettirish uchun esa C1 darajasidagi sertifikatga ega bo‘lish kerak.

Oliy ta’lim vazirligi hisobotiga ko‘ra, 2021-yildan boshlab davlat oliy ta’lim muassasalarining magistraturasiga o‘qishga qabul qilishda chet tili bo‘yicha sertifikat talab qilinishi kvotalar ochiq qolishiga sabab bo‘lgan va natijada moliyaviy mustaqil oliy ta’lim muassasalari zarar ko‘rgan. Xususan, 2021-yilda kvotaning 20,7 foizi, 2022-yilda 80,2 foizi, 2023-yilda 62,6 foizi ochiq qolgan.[1]

Chet tillarga ixtisoslashgan «Foreign Languages» telekanalining tashkil etilishi (2021-yil) ham O‘zbekistonda xorijiy tillarni o‘rganishni rag‘batlantirish tizimi kengayib borayotganidan dalolatdir.[2]

Sa’y-harakatlar o‘z samarasini bera boshladi. O‘zbekistonda birinchi marta IELTSdan maksimal daraja - 9-ball 2023-yilda ro‘yxatga olindi. Bu muvaffaqiyat yagona holatligicha qolmagani ham quvonarli hol. 2024-yil iyul oyi statistikasiga ko‘ra, ushbu ko‘rsatgich 25 nafarni tashkil etgan.[3] 2025-yil dekabr holatiga ko‘ra, 68 nafar nomzod IELTSdan 9 ballni qo‘lga kiritgan.[4] ‘O‘zbekistonlik bir qancha IELTS nomzodlari birin-ketin ingliz tilini ekspert darajasida bilishini isbotladi, bu esa ko‘pchilikni tilini yuqori saviyada o‘rganishga undadi va chet tilini o‘rganish istagida bo‘lgan yoshlar sonini ko‘paytirdi. 2024-yilda IELTS imtihonidan 5.5 va undan yuqori ballni qo‘lga kiritgan O‘zbekistonliklar soni 53 ming nafarni tashkil etgani va bu to‘rt yil avvalgi ko‘rsatkichdan 5 barobar yuqoriligi fikrimiz isbotidir. 2024-yilda 8.5 va 9 ballarni qayd etganlar soni 332 nafarga yetgan.[5]

EF English Proficiency Index va TOEFL yoki IELTS ballari kabi ingliz tilini bilish darajasi ko‘rsatkichlari mamlakatning til o‘rganish jarayoni haqida qimmatli ma’lumotlar bera oladi. Ko‘pgina mamlakatlar o‘z fuqarolarining ingliz tilini bilish darajasini aniqlash uchun ushbu statistikani kuzatib boradi. O‘zbekistonda ingliz tilini bilish darajasi «juda past» deb baholanib, 123 davlat ichida 104-o‘rinni egallagan.[6] Hozirgi holat maqtovga loyiq emas, lekin natijalarni yaxshilash uchun katta miqiyosdagi ishlar qilinmoqda. «O‘zbekistonda imtihon topshiruvchilarning IELTS balli o‘rtacha 5,7 ni tashkil qiladi. Taqqoslash uchun, Qozog‘istonda bu ko‘rsatkich 6,1 ni tashkil qiladi (2021-yil ko‘rsatkichlari). Yuqori natija ko‘rsatgan yoshlarning imtihon xarajatlari davlat tomonidan to‘lanayotgani bois, yoshlardan yuqori natija uchun mehnat qilish, ko‘proq bilim olish talab etiladi».[7]

O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligi til o‘rganishni rag‘batlantirish borasida salmoqli ishlarni amalga oshirayotgan faol tashkilotlardan biridir. Agentlik direktori Alisher Sa’dullayev bergan statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2021-yilda 2 833 nafar yoshlarga 5.5 mlrd so‘m, 2022-yilda 7 744 nafar yoshlarga 13,4 mlrd so‘m, 2023-yilda esa, 12 359 nafar yoshlarga 21,7 mlrd so‘m yoshlarning imtihon xarajatlari qoplab berilgan.

Hududlar kesimida esa, chet tili imtihonlaridan yuqori ballni qo‘lga kiritib, imtihon xarajatlari qoplab berilganlar Toshkent shahrida 8 787 nafar (16,1 mlrd), Buxoroda 2 011 nafar (3,43mlrd), Farg‘ona viloyatida esa 1 787 nafar (2,98 mlrd) yoshlarni tashkil etadi».[8] Hozirda yuqori ko‘rsatkichga erishgan yoshlar uchun agentlik tomonidan imtihon xarajatlari qoplab beriladigan xalqaro imtihonlar 18 tani tashkil etadi. Bir so‘z bilan aytganda, bugun O‘zbekistonda yoshlarning til o‘rganishi va hayotning turli jabhalarida muvaffaqiyatlarga erishishi, mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishi, O‘zbekiston taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘tarishi uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

Rezume. Mazkur maqolada O‘zbekistonda til siyosatining shakllanishi va rivojlanishi, xususan, ingliz tilining jamiyatdagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda tilning nafaqat muloqot vositasi, balki identiklik, madaniyat va

[1] https://abt.uz/blog/magistratura-bosqichiga-chet-tili-sertifikati-talabi-qoyilgani-sabab-otmlar-moliyaviy-zarar-korgan-hisobot

[2] 546-сон 27.08.2021. «Foreign Languages» хорижий тиллар телерадиоканалини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида (lex.uz)

[3] https://daryo.uz/2024/07/19/ielts-dan-9-olgan-ozbekistonliklar-depressiyaga-qarshi-kozoynak-spa-muolajasi-olayotgan-godak-ijtimoiy-tarmoqlarda-nima-gap

[4] https://www.facebook.com/yoshlaragentligirasmiy/posts/%EF%B8%8Fozbekistonda-ieltsdan-9-ball-olgan-yoshlar-soni-68-nafarga-yetdijami-6-2020-202/1175640808084201/

5 https://kun.uz/news/2024/12/14/ozbekistonlik-yoshlarning-ieltsdagi-natijalari-sezilarli-yaxshilandi

6 https://www.ef.co.uk/epi/regions/asia/uzbekistan/

7 https://t.me/alisher_sadullaev/1557

8 https://t.me/alisher_sadullaev/4210

ijtimoiy hamjihatlikni shakllantiruvchi omil sifatidagi ahamiyati yoritilgan. So‘nggi yillarda til siyosatidagi islohotlar, shuningdek, ingliz tilini o‘rganishga qaratilgan davlat siyosati, qonunchilik asoslari va amaliy natijalari tahlil qilinadi.

Resume. This article analyzes the formation and development of language policy in Uzbekistan, with particular emphasis on the role of the English language in society. The study highlights the importance of language not only as a means of communication, but also as a factor shaping identity, culture, and social cohesion. It also examines recent reforms in language policy, as well as government policies aimed at promoting English language learning, their legal framework, and practical outcomes.

Резюме. В данной статье анализируются формирование и развитие языковой политики в Узбекистане, в частности роль английского языка в обществе. В исследовании освещается значение языка не только как средства коммуникации, но и как фактора, формирующего идентичность, культуру и социальную сплочённость. Также рассматриваются реформы языковой политики последних лет, государственная политика по продвижению изучения английского языка, её законодательные основы и практические результаты.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2026; 3
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

JOJO MOYESNING «TO SENI TOPGUNIMCHA» ROMANIDA KOGNITIV DISSONANS FENOMENINING PSIXOLOGIK VA LINGVISTIK TALQINI HAMDA UNING TARJIMASHUNOSLIKDAGI IFODASI

Tursunova Marxabo Raxmonovna,
Osiyo xalqaro universiteti tayanch doktoranti

Kognitiv dissonans – bu psixologiyada Leon Festinger tomonidan ishlab chiqilgan tushuncha bo‘lib[1], shaxsning ichki e’tiqodlari, qarashlari va amaliy xatti-harakatlari orasidagi ziddiyat natijasida yuzaga keladigan ichki psixologik noqulaylikni ifodalaydi. Ushbu fenomen psixologik stress, qaror qabul qilishdagi qiyinchiliklar va ichki muvozanatni saqlashga bo‘lgan ehtiyoj bilan chambarchas bog‘liq. Adabiyotlarda kognitiv dissonans odatda shaxsiy qarorlar, ijtimoiy xatti-harakatlar yoki axloqiy dilemma kontekstida o‘rganiladi.

So‘nggi yillarda kognitiv dissonans fenomeni tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalarida ham e’tibor qozonmoqda. Adabiy matn va uning tarjimasi orasidagi semantik, stilistik va madaniy tafovutlar, shuningdek, matn qahramonlarining ichki psixologik holati, dissonansni aniqlash uchun muhim manba hisoblanadi. Shu kontekstdan kelib chiqqan holda, ushbu maqola kognitiv dissonans fenomenini tilshunoslik, tarjimashunoslik va psixologiya nuqtai nazaridan tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, Jojo Moyesning *«To seni topgunimcha»* asaridan olingan matn parchasini asos qilib oladi.

Kognitiv dissonans psixologiyada shaxsning ichki qarashlari, e’tiqodlari va xatti-harakatlari orasidagi nomuvofiqlikni aniqlash va tushunishga xizmat qiladi. Festinger ta’kidlashicha, inson o‘z qarashlari yoki qadriyatlari bilan amaliy xatti-harakatlari o‘rtasida ziddi-

[1] Leon Festinger. A Theory of Cognitive Dissonance. Stanford: Stanford University Press, 1957. P – 76.